

XO'JA ZAYNIDDIN MAJMUASI – BUXORO ME'MORIY MEROSINING
NODIR NAMUNASI

Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi E-mail:nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com Tel:+998

(94) 392 42 62

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVI asr o'rtalariga oid Xoja Zayniddin masjidi me'moriy tuzilishi, badiiy bezaklari va shaharsozlik tizimidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritiladi. Yodgorlikning Buxoro shahri ichki hududida joylashuvi, gumbazli ibodat zali, markaziy hovli tizimi hamda hujralar bilan uyg'unlashgan majmua tuzilishi tahlil etiladi. Shuningdek, masjid ichki bezaklarida qo'llangan naqshlar, ganch o'ymakorligi va "kundal" uslubiga xos rangli yechimlarning badiiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Xoja Zayniddin masjidi Markaziy Osiyo me'morchiligining rivojlanish bosqichlarini o'rganishda muhim manba sifatida baholanadi va o'zining tarixiy hamda madaniy qiymatini saqlab qolgan yodgorliklardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Xoja Zayniddin masjidi, Buxoro me'morchiligi, XVI asr yodgorliklari, gumbazli inshoot, xonaqoh, hujralar, hovli tizimi, hovuz, islom me'morchiligi, bezak san'ati, "kundal" uslubi, Markaziy Osiyo me'morchiligi, tarixiy yodgorliklar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются архитектурная структура, художественное оформление и роль в градостроительной системе мечети Ходжа Зайнуддин, относящейся к середине XVI века. Анализируется расположение памятника в исторической части города Бухары, структура комплекса, включающая купольный молитвенный зал, центральный двор и худжры. Также рассматриваются художественные особенности внутреннего декора мечети, такие как орнаменты, ганчевое резьбление и цветовые решения, характерные для стиля «кундаль». Мечеть Ходжа Зайнуддин оценивается как важный источник для изучения этапов развития архитектуры Центральной Азии и является одним из памятников, сохранивших своё историческое и культурное значение.

Ключевые слова: Мечеть Ходжа Зайнуддин, архитектура Бухары, памятники XVI века, купольное сооружение, ханако, худжры, система двора, хауз, исламская архитектура, декоративное искусство, стиль «кундаль», архитектура Центральной Азии, исторические памятники.

Abstract: This article examines the architectural structure, artistic decoration, and urban significance of the Khoja Zayniddin Mosque dating back to the mid-16th century. The study analyzes the location of the monument in the historic area of Bukhara, as well as the complex structure consisting of a domed prayer hall, a central courtyard, and adjoining hujras. It also explores the artistic features of the interior decoration, including ornamental patterns, stucco carving, and color schemes characteristic of the "kundal" style. The Khoja Zayniddin Mosque is regarded as an important source for studying the development stages of Central Asian architecture and is considered one of the monuments that has preserved its historical and cultural value.

Keywords: *Khoja Zayniddin Mosque, Bukhara architecture, 16th-century monuments, domed structure, khanaqah, hujras, courtyard system, hauz, Islamic architecture, decorative art, kundal style, Central Asian architecture, historical monuments.*

O'zbekiston hududi qadim zamonlardan buyon yuksak madaniyat va ma'naviyat rivojlangan, o'ziga xos me'morlik an'analari shakllangan tarixiy o'lkalardan biri hisoblanadi.

Bu zaminda bunyod etilgan turli me'moriy inshootlar xalqimizning asrlar davomida to'plagan bunyodkorlik tajribasi, badiiy didi hamda ma'naviy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Ayniqsa, tarixiy shaharlar tarkibida saqlanib qolgan masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, maqbaralar, karvonsaroylar, sardobalar, darvozalar va boshqa me'moriy obidalar milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega.

Ana shunday qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Buxoro asrlar davomida Movarounnahrning yirik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va ma'naviy markazlaridan biri sifatida taraqqiy etgan.

Shaharda bunyod etilgan me'moriy obidalar nafaqat o'z davrining bunyodkorlik yutuqlarini, balki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va estetik qarashlarini ham aks ettiradi.

Shu sababli Buxoroning tarixiy obidalarini mamlakatimiz madaniy merosining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shaharning ko'hna qiyofasini belgilovchi ko'plab me'moriy yodgorliklar orasida Xo'ja Zayniddin majmuasi alohida o'rin tutadi.

Xo'ja Zayniddin majmuasi Buxoro shahrining tarixiy qismida joylashgan bo'lib, o'zining me'moriy tuzilishi, badiiy bezaklari va shaharsozlikdagi o'rni bilan ajralib turadi.

Majmua asosan xonaqoh va hovuzdan tashkil topgan bo'lib, uzoq yillar davomida shahar aholisining ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qilgan.

Xonaqohlar o'rta asrlarda tasavvuf namoyandalari va muridlarining yig'ilish, suhbat va ibodat maskani vazifasini bajargan bo'lsa, hovuzlar shaharning suv ta'minoti tizimida muhim o'rin egallagan. Shu jihatdan Xo'ja Zayniddin majmuasi diniy-ma'rifiy va xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan me'moriy majmua sifatida shakllangan.

Mazkur obida Buxoro me'morlik maktabining o'ziga xos jihatlarini yaqqol namoyon etadi. Unda pishiq g'ishtdan foydalanish, gumbazli tuzilma, ravoq va peshtoq unsurlari, murakkab handasaviy shakllar hamda nafis bezak san'ati uyg'unlashgan.

Inshootning ichki va tashqi qiyofasida me'mor va naqqoshlarning yuksak mahorati namoyon bo'lib, unda o'z davrining bunyodkorlik an'analari mujassamlashgan.

Ayniqsa, xonaqohning ichki tuzilishi, gumbaz osti yechimi va bezak unsurlari Buxoro me'morligining yuksak namunalariidan biri hisoblanadi.

Tarixiy obidalarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning bunyod etilish tarixi, me'moriy tuzilishi va madaniy ahamiyatini yoritish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Chunki tarixiy yodgorliklar xalqning o'tmishi, bunyodkorlik tajribasi va ma'naviy merosini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Ularni asrash, tiklash va kelajak avlodlarga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bois Xo'ja Zayniddin majmuasini o'rganish ham tarixiy-me'moriy merosni tadqiq etishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi Xo'ja Zayniddin majmuasining bunyod etilish tarixi, me'moriy tuzilishi, badiiy bezaklari va tarixiy-madaniy ahamiyatini yoritishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida majmuaning shakllanish bosqichlari, me'moriy yechimlari, bezak san'ati xususiyatlari hamda Buxoro shahar me'morligidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, obidaning milliy madaniy merosimizdagi o'rni va bugungi kundagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida ochib beriladi.

Xoja Zayniddin majmuasi XVI asrning birinchi yarmida shakllangan muhim me'moriy yodgorliklardan biri sifatida ajralib turadi. U Shahristonning janubi-g'arbiy qismida, qadimiy guzar hududidagi muhim chorraha nuqtasida joylashgan bo'lib, o'z davrida nafaqat diniy ibodat maskani, balki ijtimoiy va ma'rifiy markaz vazifasini ham bajargan[1].

Majmua tarkibiy jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda masjid-xonaqoh, maqbara, hujralar hamda ziyoratchilar uchun mo'ljallangan bir necha yordamchi xonalar mavjud.

Binoning umumiy me'moriy o'lchamlari ham uning yirik inshoot ekanligini ko'rsatadi. U pishiq g'ishtdan bunyod etilgan bo'lib, qurilishda an'anaviy mahalliy me'morchilik uslublari ustuvor bo'lgan.

Majmuaning asosiy fasadi janubiy tomonda joylashgan bo'lib, chuqur ravoqli peshtoq orqali ajralib turadi. Peshtoqning chuqur va ko'p qirrali ravoqlari binoga monumental ko'rinish bag'ishlaydi.

Fasad yechimida simmetriya va muvozanat tamoyillari saqlangan bo'lib, uning ikki yon qismida qo'shimcha xonalar va ravoqsimon ochiqliklar joylashtirilgan.

Shimoliy va janubiy fasadlar bo'ylab ustunlarga tayangan ayvon tizimi mavjud bo'lib, u nafaqat soyali hudud yaratish, balki me'moriy kompozitsiyani boyitish vazifasini ham bajargan. Bu ayvonlar yog'och ustunlar va bezakli ustunboshlari orqali estetik jihatdan ham ahamiyat kasb etadi.

Majmuaning g'arbiy fasadida chuqur ravoqli tokchasimon qism joylashgan bo'lib, aynan shu joyda Xoja Zayniddin (yoki Xoja Turkiy) maqbarasi o'rin olgan. Maqbara ustida maxsus belgilar va bayroq unsurlarining mavjudligi bu joyning muqaddas ziyorat maskani sifatida e'tirof etilganini ko'rsatadi.

Binoning ichki qismi boy bezak san'ati bilan ajralib turadi. Devorlarning pastki qismi naqshin panellar bilan qoplangan bo'lsa, yuqori qismlarda ganch o'ymakorligi va rangli bezaklar keng qo'llangan. Bezaklar orasida geometrik va o'simliksimon naqshlar uyg'unlashtirilgan bo'lib, ular nafis badiiy kompozitsiyani hosil qiladi.

Ichki devorlar, mehrob va gumbaz yuzalari bo'ylab yozuvli kitobalar joylashtirilgan bo'lib, ularda Qur'oni karimdan olingan oyatlar bitilgan. Bu yozuvlar nafaqat bezak, balki ma'naviy-ruhiy mazmunni ham ifodalaydi.

Gumbaz osti va devorlar bo'ylab ishlangan naqshlar "kundal" uslubiga xos bo'lib, ularda oltin va ko'kimtir ranglar uyg'unligi ko'zga tashlanadi. Majmua hovlisida hujralar va tahoratxona joylashgan bo'lib, ular ziyoratchilar va talaba-tadqiqotchilar uchun zarur sharoitlarni ta'minlagan. Hovli markazida esa katta to'g'ri to'rtburchak shaklidagi hovuz mavjud bo'lib, u ham XVI asrning birinchi yarmiga mansub hisoblanadi. Hovuzning ayrim qismlari keyingi davrlarda qayta ta'mirlangan bo'lsa-da, uning asosiy tuzilishi saqlanib qolgan.

XVI asr boshlariga oid Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqosi o'zining me'moriy yechimi va ichki bezaklari bilan davr me'morchilik an'alarining rivojlangan bosqichini aks ettiradi. Bino o'z vazifasiga ko'ra masjid va xonaqoh funksiyalarini birlashtirgan holda ko'pxonali va gumbazli tuzilishga ega. Majmua rejasida markaziy hovli muhim o'rin tutadi. Hovli atrofida hujralar joylashgan bo'lib, ularning ko'pligi inshootning diniy-ma'rifiy markaz sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Hovli markazida joylashgan suv havzasi esa ichki makonning kompozitsion muvozanatini ta'minlovchi asosiy elementlardan biridir.

Gumbazli zalning ichki qismi boy naqsh va bezaklarga ega bo'lib, devor yuzalarida qo'llangan panellar XVI asr bezak san'atining yetuk namunalarini namoyon etadi[2]. Ichki bezaklarda geometrik va o'simliksimon naqshlar uyg'unlashgan holda ishlangan bo'lib, ular me'moriy makonga badiiy ifoda va nafislik bag'ishlaydi. Umuman olganda, ushbu masjid-xonaqoning me'moriy tuzilishi va bezak tizimi diniy va estetik funksiyalarning uyg'un holda shakllanganligini ko'rsatadi.

Xo'ja Zayniddin masjidi XVI asr me'moriy yodgorliklaridan biri bo'lib, qadimiy Buxoro shahrining muhim diniy va madaniy obidalariga qatoriga kiradi. U eski mahalla hududida, tarixiy suv havzasi yaqinida joylashgan. Manbalarda qayd etilishicha, masjid Xo'ja Zayniddin tashabbusi bilan bunyod etilgan bo'lib, uning qurilishida usta Mir Dustumbiy ishtirok etgan[3]. Inshoot dastlab Imom al-Buxoriy xotirasiga bag'ishlangan diniy markaz sifatida shakllangan.

Xo'ja Zayniddin 1465–1480 yillarda Buxoro shahrida qozi kalon lavozimida faoliyat yuritgan.

Bu davr uning shahar diniy va huquqiy hayotida muhim mavqega ega bo'lganligini ko'rsatadi. Keyingi davrlarda, xususan Abdulaziz ibn Ubaydullaxon hukmronligi davrida masjid ta'mirlangan bo'lib, uning me'moriy ko'rinishi va ayrim qismlari qayta tiklangan.

Xo'ja Zayniddin masjidi XVI asr o'rtalariga oid Markaziy Osiyo islom me'morchiligining muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

U Buxoro shahrining tarixiy "ichki shahar" (shahriston) hududida, qadimiy mahalla tizimi ichida joylashgan bo'lib, shahar markaziy me'moriy muhitining tarkibiy qismi sifatida shakllangan.

Masjid joylashuvi uning nafaqat diniy, balki ijtimoiy va ma'naviy markaz sifatidagi o'rnini ham belgilaydi.

Me'moriy jihatdan masjid gumbazli ibodat zali asosida qurilgan bo'lib, uning ichki fazosi markaziy kvadrat reja asosida shakllangan.

Gumbaz to'rtta asosiy ark orqali ko'tarilgan bo'lib, bu konstruktiv yechim XV–XVI asrlar Buxoro me'morchiligida keng qo'llangan ilg'or uslublardan biridir[4].

Gumbazga o'tish zonasi muqarnas, ravoqlar va skvinchlar yordamida yechilgan bo'lib, bu elementlar konstruktiv va estetik vazifani birgalikda bajaradi.

Ibodat zalining ichki qismi yuqori darajada bezatilgan bo'lib, devor yuzalarida geometrik va o'simliksimon naqshlar uyg'unlashgan. Pastki devor qismlarida dekorativ panellar ishlatilgan, yuqori qismlar esa rangli ganch bezaklari bilan boyitilgan.

Mehrob qismi markaziy diniy yo'nalishni ifodalovchi asosiy element sifatida alohida badiiy yechimga ega bo'lib, u nafis bezak va relyef ishlari bilan ajralib turadi. Ichki bezaklarda "kundal" uslubiga xos oltin va rangli naqshlar qo'llanilgan bo'lib, bu uslub XVI asr Buxoro bezak san'atining yuqori bosqichini ifodalaydi.

Devorlar va gumbaz yuzalarida simmetrik kompozitsiyalar asosida ishlangan naqshlar binoning estetik yaxlitligini ta'minlaydi.

Masjid tarkibida asosiy ibodat zalidan tashqari kichik yordamchi xonalar ham mavjud bo'lib, ular hujra shaklida qurilgan.

Bu xonalar turli davrlarda yashash, ibodatdan chekinish yoki ziyoratchilar uchun vaqtinchalik maskan sifatida foydalanilgan bo'lishi mumkin.

Bu holat majmuaning faqat ibodat joyi emas, balki ma'naviy va ijtimoiy hayot markazi bo'lganini ko'rsatadi.

Majmua hududida katta hajmdagi suv havzasi (hovuz) ham joylashgan bo'lib, u zinapoyali shaklda qurilgan. Hovuz shahar aholisi uchun suv manbai bo'lib xizmat qilgan va mahalla infratuzilmasining muhim qismi hisoblangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, u ikki xil suv manbasi orqali to'ldirilgan bo'lib, bu uning muhim muhandislik yechimiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Hovuz tizimi shahar markazidagi suv ta'minoti tarmog'i bilan bog'liq bo'lgan.

Yodgorlikning qurilish davri aniq qayd etilmagan bo'lsa-da, me'moriy tahlillar uning XVI asr boshlaridan o'rtalarigacha bo'lgan davrda shakllanganini ko'rsatadi. Keyingi asrlarda masjid bir necha bor ta'mirlangan va ichki bezaklar qayta ishlangan.

Bu jarayonlar yodgorlikning uzoq muddat davomida faol foydalanilganini va uning shahar hayotidagi ahamiyati saqlanib qolganini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, Xoja Zayniddin masjidi XVI asr Buxoro me'morchilik maktabining yuksak badiiy va muhandislik salohiyatini o'zida mujassam etgan muhim yodgorliklardan biridir.

Uning gumbazli ibodat zali, murakkab konstruktiv yechimlari hamda nafis bezak san'ati shuni ko'rsatadiki, bu inshoot nafaqat diniy ehtiyojlar uchun, balki shahar madaniy va ma'naviy hayotining markaziy bo'g'ini sifatida ham xizmat qilgan.

Majmuaning ichki tuzilishida hujralar, markaziy hovli va suv havzasining uyg'un joylashtirilishi o'z davrining shaharsozlik an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tizimni namoyon etadi.

Ayniqsa, hovuz inshooti va ibodat zali o'rtasidagi funksional va kompozitsion bog'liqlik majmuaning yagona me'moriy organizm sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Ichki bezaklarda qo'llangan naqshlar, yozuvli kompozitsiyalar va "kundal" uslubiga xos rangli yechimlar Buxoro bezak san'atining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Bu esa masjidni nafaqat diniy inshoot, balki o'z davrining estetik tafakkuri va badiiy madaniyatini aks ettiruvchi noyob yodgorlik sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, Xoja Zayniddin masjidi tarixiy, me'moriy va madaniy jihatdan o'z ahamiyatini bugungi kungacha saqlab qolgan yodgorlik bo'lib, u Markaziy Osiyo islom me'morchiligining rivojlanish jarayonini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ф.Абдухолиқов, А.Раззоқов, К.Раҳимов, Э.Некрасова. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Бухоро. Биринчи қисм. Китоб-албом – Тошкент, “Ўзбекистан Тодай” ахборот агентлиги, – 2016, 552 б.
2. То'rayev Н. Buxoro tarixi. – Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2020. – 320 b.
3. <https://meros.uz/object/xoja-zayniddin-masjidi>
4. <https://www.orientalarchitecture.com/sid/1335/uzbekistan/bukhara/hoja-zayniddin-mosque>